

**O`ZBEKISTONDA TOG`-VODIY TURIZMINI RIVOJLANTIRISH HAMDA
EKOTURISTIK MADANIYATNI OSHIRISH YO`LLARI**

*Ja`far Muhammadjonov Jamshid o`g`li
Toshkent Kimyo xalqaro universtiteti*

Annotatsiya: Ushbu maqola O`zbekiston tog`-vodiylarining ekoturistik imkoniyatlariga to`xtalib o`tilgan. Tog`-vodiy hududlardan keng foydalanish maqsadida ayrim rel`ef turlari keltirilgan. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ishlar qatorida ekoturistik sahani rivojlantirish ham dolzarbligini ko`rishimiz mumkin.

Kalit so`zlar: iqlimiy resurslar, geomorfologik resurslar, tangi, organik resurslar, gidrologik resurslar.

KIRISH

Bugungi kunda dunyo mamlakatlari o`zlaridagi mavjud tabiiy imkoniyatlardan samarali foydalanish maqsadida turizmga katta e`tibor qaratmoqda. O`zbekistonda so`nggi yillarda qabul qilingan qator farmon va qarorlar ushbu sohani rivojlanishi muhim ahamiyatga ega ekanligidan dalolat beradi. Jumladan, 2016 yil 2 dekabrda O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev tomonidan “O`zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta`minlash chora-tadbirlari to`g`risida” gi farmonning imzolanishi bu sohadagi yangi qadamlardan biri bo`ldi.

Shuningdek, O`zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatida “...mamlakatimizning betakror tabiati, go`zal damolish olish zonalari imkoniyatlaridan foydalanib, yangi turistik yo`nalishlar ochish mumkin” ligini alohida qayd etib, “...biz ziyorat turizmi, ekologik, ma`rifiy, etnografik, gastronomik turizm va bu sohaning boshqa tarmoqlarini rivojlantirishga alohida e`tibor qaratishimiz zarur” ekanligini ta`kidlab o`tgan edilar .

Shu boisdan O`zbekistonning turli mintaqalarida turizmning qator turlarini rivojlantirishga qaratilgan tadqiqotlari olib borish va ilmiy- amaliy tavsiyalar ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega.

Dunyo mamlakatlarida ekoturistik ob`ekt hamda resurs sifatida go`zal daryo vodiylari, daralar, hurviqor tog`lar, ko`l sohillari, sharsharalar, cho`llardagi qum barxanlari xizmat qiladi.

O`zbekiston ham qator ekoturistik imkoniyatlarga egaligi barchaga ma`lum. Mamlakatning sharqiy va janubiy qismlarini baland tog`lar va tog` oraliq botiqlari egallagan bo`lib, ular O`zbekiston maydonining 21,3 % ini tashkil etadi¹. Ushbu

¹ Xasanov I.A., G`ulomov P.N. O`zbekiston tabiiy geografiyasi. – T., 2006.

togʻlardan Amudaryo va Sirdaryo havzasidagi oʻnlab daryo va yuzlab soylar boshlanadi. Daryo va soylarning aksariyati yuqori oqimida chuqur va tor vodiylardan oqib oʻrta oqimida biroz kengayadi. Ayrim joylarda balandsharsharalar, baʼzi joylarda esa tor daralar hosil qiladi. Togʻlar va ulardan boshlangan daryolar vodiysi mavsumlararo ham turli qiyofaga kiradi. Jumladan, togʻ vodiylari bahorda efemer va efemeroidlar bilan qoplanib oʻzgacha qiyofaga kirsa, yozda oʻzining salqin va bahavoligi bilan sayyohlar eʼtiborini tortadi. Kuzda dov-daraxtlar barg tashlab, mevali daraxtlar hosilberadi. Qish fasli esa togʻlardagi qor va muzliklar maydoni kengayib hurviqorlik kasb etadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

I.P.Gerasimov (1937) Oʻrta Osiyo togʻli oʻlkasini 4 qismga – baland togʻ, oʻrta togʻ, past togʻ va daryo vodiylariga ajratadi. Baland togʻ mintaqasi mutloq balandligi 2000 m dan yuqori boʻlgan togʻ daryolarining katta qiyalikdagi suvayirgʻich qismi va unga tutash platolaridan iborat (Amanbaeva Z.A., 2015).

I.A.Xasanov va P.N.Gʻulomovlar (2006) Oʻzbekiston togʻli qismi relefining asosiy xususiyati sifatida togʻ tizmalarining togʻ oraliq botiqlari bilan gʻarbga ochiq va shu tomonga balandligi pasayib boradigan togʻ oldi tekisliklarining yonma-yon joylashganligini eʼtirof etishib, togʻli hududlar orografik tuzilishini 2 ga: 1) togʻ sistemalari va 2) togʻ oraligʻi va togʻ oldi botiqlariga ajratishadi.

Oʻzbekiston togʻ oldi va togʻlari tasnifida gipsometrik pogʻonasiyuqoridan pastga tomon glyatsial-nival, togʻ-tundra, togʻ-oʻrmon, togʻ-oʻtloq, togʻ-oʻrmon-dasht, dasht, chala choʻl landshaft turlari ajratiladi (Xasanov I.A., va b.,2010). Ushbu landshaftlar Oʻzbekistonning turli togʻlarida turlicha balandlikda mavjud. Masalan, glyatsial-nival landshaftlar Ugom, Piskom, Chotqol togʻ tizmalarida 3200 metrdan balandda joylashgan boʻlsa, Hisor tizmasida ushbu landshaft turi 3500 metrdan balandda vujudga kelgan².

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Oʻzbekiston togʻ-vodiy landshaftlarining ekoturistik salohiyatlari ancha keng boʻlib, bunday salohiyatni quyidagi ekoturistik resurslar belgilab beradi:

- **iqlimiy resurslar.** Togʻlar tabiati insonlarga doim xush yoqib kelgan. Ular musaffoligi bilan davolanishda ham yordam beradi. Togʻlar yozda ob-havoning salqinligi, kuz va bahorda oʻziga xos moʻtadilligi bilan xarakterlanadi;

- **geomorfologik resurslar.** Oʻzbekiston togʻlari geomorfologik ekoturistik resurslarga – daralar (tangi), gʻorlar, qoyalar, karlinglarga ancha boyligi bilan tavsiflanadi. Ular oʻzlarining nafaqat goʻzal tabiati bilan, balki tarix sir- asrorlarini oʻz

² Amanbaeva Z.A. Togʻli hududlar-geoekologik tadqiqotlar markazida // Geografiya fani va taʼlimning zamonaviy muammolari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari toʻplami. –T.: TDPU, 2015. B. 34-35.

bag`rida saqlayotganligi bilan ham ahamiyatlidir. Tog`li hududlarda maftunkor tabiat mo`jizalari shakllangan bo`lib, tabiat hosil qilgan ana shunday mo`jizalarga relief formalaridan biri – tangilar yaqqol misol bo`ladi. **Tangi** – daryolarning tog`li hududdan oqib o`tuvchi qismida, qattiq tub jinslarni daryo yuvishi natijasida hosil bo`ladigan tor va chuqur, tik yon bag`irli vodiya aytiladi. Uning yon devorlari uzoq muddatgacha tik holatda bo`ladi. Vodiy eniga sekin o`sadi va odatda, chuqurligi enidan ortib boradi. Tangilar ba`zan yer yuzasi yorilganda tektonik yo`l bilan ham vujudga keladi;

- **organik resurslar.** O`zbekiston tog` vodiylari organik resurslarning (ayniqsa o`simliklarning) mavsumiy almashinishi bilan xususiyatlidir. Masalan, bahorda tog`, tog` oldi, vodiy yonbag`irlari efemerlar bilan yoppasiga qoplanib o`zgacha tarovat kasb etsa, kuzda tog`-vodiy qiyofasi dov-daraxtning bargtashlashi bilan o`zgaradi. Yana shuningdek, bahorda qushlar, turli sut emizuvchilar harakati faollasha, qishda tog`larning 2200 metrdan baland qismlarida yovvoyi tabiatning etalonlari – qor barsi, silovsin, kabilarni uchratish mumkin;

- **gidrologik resurslar.** Daryolar, soylar, sharsharalar (Sangardak, Ho`kizburun), tog` ko`llari, yuzlab buloqlar (ularning aksariyati shifobaxshligi bilan ham ahamiyatli), muzliklar (Botirboy, Seversov) tog`-vodiy landshafti bilan uyg`unlashib go`zal manzara hosil qilgan.

NATIJALAR

Yuqorida ko`rsatilgan ekoturistik resurslar tog` landshaftlarining ekoturistik salohiyatini naqadar yuqori ekanligini belgilaydi. Ushbu imkoniyatlardan foydalanish mamlakat iqtisodiyotini o`shishida muhim rol o`ynaydi.

A.Nizomov va boshqalar “O`zbekistonning ekoturistik resurslari va yo`nalishlari” nomli monografiyasida tog` va baland tog` mintaqasi bo`ylab 30ta yo`nalishdagi asosiy nuqtalarni ko`rsatishgan. O`zbekistondagi ko`plab tog` daryolari vodiylarida ana shunday ekoturistik yo`nalishlar ajratsa bo`ladi. Bundaylar qatoriga Ko`ksuv, Piskom, Ugom, Oqsuv, To`polon, Sangzor, Katta O`radaryo, Shohimardon, So`x, G`ovasoy vodiylarini qo`shish o`rinlidir³.

XULOSA VA MUNOZARA

Geomajmualarning ekoturistik imkoniyatlarini belgilab beruvchi omillarning ekoturistik imkoniyatlarini yuzaga keltiradigan mavqeiga qarab ikkiga – kuchli va kuchsizga bo`lish mumkin. Kuchli omillarga relief, iqlim, yer usti va yer osti suvlari kirib, ular ekoturistik imkoniyatlarning yuzaga kelishida yetakchi hisoblanadi. Kuchsiz omillarga tuproq va o`simlik qoplamini hamda hayvonot dunyosini kiritish mumkin.

O`zbekiston tog` vodiylarida kuchli omillarning yetakchiligi va kuchsiz omillarning ham tekislikka nisbatan ustuvorligi ekoturizmni rivojlantirish

³ Allayorov R.X., Bo`ribekov M.F., Xidirov M.Sh., Raxmonqulov A.N. O`zbekiston tog`-vodiy landshaftlarining ekoturistik imkoniyatlari // Geografiya va geografiya ta`limidagi muammolar. Respublika konferensiya materiallari. – Jizzax: JDPI, 2018. B. 75-77.

mumkinligini ko`rsatadi. Tog` vodiylari landshaftlaridan ekoturistik resurs sifatida foydalanib, ushbu hududlarda ekoturizmni rivojlantirish orqali mintaqalar iqtisodiyotini hamda tog`lik xalqlar yashash sharoitining yaxshilanishiga erishish mumkin.

ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi // Ma`rifat, 2017 yil 23 dekabr.
2. Allayorov R.X., Bo`ribekov M.F., Xidirov M.Sh., Raxmonqulov A.N. O`zbekiston tog`-vodiy landshaftlarining ekoturistik imkoniyatlari // Geografiya va geografiya ta`limidagi muammolar. Respublika konferensiya materiallari. – Jizzax: JDPI, 2018. B. 75-77.
3. Allayorov R.X., Xidirov M.Sh., Bo`ribekov M.F. Tangilar ekoturistik ob`ekt va resurs sifatida // Oliy ta`lim tizimida tabiiy fanlar: ilmiy tadqiqot, o`qitish va malaka oshirish muammolari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. Farg`ona, 2018. B. 162-164.
4. Amanbaeva Z.A. Tog`li hududlar-geoekologik tadqiqotlar markazida // Geografiya fani va ta`limning zamonaviy muammolari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to`plami. –T.: TDPU, 2015. B. 34-35.
5. Nizomov A., Amanbaeva Z., Safarova N. O`zbekistonning ekoturistik resurslari va yo`nalishlari. – T.: Fan va texnologiya, 2014. 104 b.
6. Dilovar Najmiddinovich Rashidov, Sharofat Amonovna Kadirova, & Ziyoda Abduvositovna Karimova (2022). MEHNAT BOZORIDA TENG SHARTLARDA RAQOBATLASHA OLMAYDIGANLAR, AYNIQSA NOGIRONLARNI ZAXIRALANGAN ISH O`RINLARIGA ISHGA JOYLASHTIRISH MUAMMOLARI. Academic research in educational sciences, 3 (TSTU Conference 2), 281-285.
7. Xasanov I.A., G`ulomov P.N. O`zbekiston tabiiy geografiyasi. – T., 2006.